Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 811.111

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MENASIV NUTQIY AKTLARNING GRAMMATIK-SINTAKTIK IFODALANISHI

Shoxsanamxon Nosirjon qizi O’rinova*

Toshkent davlat transport universiteti

✉ shohsanamgulomova98@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida menasiv nutqiy aktlarning grammatik-sintaktik ifodalanish xususiyatlari qiyosiy jihatda tadqiq etilishini maqsad qildik. Menasiv mazmunning shakllanishida gapning kommunikativ turlari, fe’lning zamon va mayl shakllari, imperativ konstruksiyalar, so‘roq va darak gaplar, shartli konstruksiyalar hamda inkor vositalarining pragmatik imkoniyatlari batafsil ochiqlanadi. Tadqiqotda grammatik shaklning o‘z-o‘zidan menasiv mazmunni belgilamasligi, balki uning muayyan kommunikativ vaziyat, kontekst va so‘zlovchining kommunikativ maqsadi bilan o‘zaro munosabati natijasida tahdid mazmuni yuzaga kelishi asoslanishi ko‘zda tutiladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi grammatik-sintaktik vositalarning umumiy va farqli jihatlari aniqlanib, menasiv nutqiy aktlarning ochiq va bilvosita ifodalanish mexanizmlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar

Kalit so‘zlar: menasiv nutqiy akt, tahdid, pragmatika, grammatik ifoda, sintaktik konstruksiya, imperativ, darak gap, so‘roq gap, shart konstruksiyasi.

DOI: 10.5281/zenodo.23278698

KIRISH

Til birliklarining kommunikativ jarayondagi funksional imkoniyatlarini o‘rganish zamonaviy pragmalingvistikaning muhim yo‘nalishlaridan sifatida baholanadi. Ayniqsa, so‘zlovchining muayyan kommunikativ maqsadini adresatga yetkazishga xizmat qiluvchi nutqiy aktlarning struktur-semantik va pragmatik xususiyatlarini aniqlash masalasi tilshunoslikda alohida ilmiy ustuvorlikka ega. Nutqiy aktlar nazariyasining shakllanishini J. L. Ostin tomonidan ishlab chiqilgan performativlik konsepsiyasisiz tasavvur qilish imkonsiz. Shu o‘rinda J. R. Syorl tomonidan nutqiy aktlarning tasnifi va illokutiv kuchi masalalari tizimlashtirilganligi alohida e’tborga sazovor.

Menasiv nutqiy aktlar adresatga nisbatan muayyan salbiy oqibatning yuzaga kelishi yoki so‘zlovchi tomonidan salbiy harakat amalga oshirilishi mumkinligini anglatishga qaratilgan kommunikativ birliklar sifatida maydonga chiqadi Bunday nutqiy aktlarda so‘zlovchining kommunikativ maqsadi faqat axborot yetkazish bilan cheklanib qolmay, balki adresatning xatti-harakatiga ta’sir ko‘rsatish, uni muayyan harakatdan tiyilishiga undash yoki kutilayotgan salbiy oqibat haqida ogohlantirishni o‘z zimmasiga yuklaydi.

Menasiv mazmunning ifodalanishida leksik vositalar bilan bir qatorda grammatik-sintaktik vositalar ham alohida e’tborga molik. Bir qarashda tahdid mazmuni asosan *threat, kill, punish, regret* kabi leksik birliklar yoki ularning o‘zbek tilidagi muqobillari orqali ifodalanadigandek ko‘rinsada, real kommunikativ jarayonda tahdid turli grammatik konstruksiyalar yordamida ham shakllanishi mumkin. Xususan, darak, buyruq va so‘roq gaplar, shart konstruksiyalari, imperativ shakllar, kelasi zamon shakllari va inkor konstruksiyalari menasiv mazmunni bunyodga keltiradi.

Ingliz va o‘zbek tillarida menasiv nutqiy aktlarning grammatik-sintaktik ifodalanishini qiyosiy o‘rganish mazkur nutqiy hodisaning umumiy va milliy-lisoniy xususiyatlarini aniqlash uchun zamin yaratadi.

Tadqiqotning maqsadi

Tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida menasiv nutqiy aktlarning grammatik-sintaktik ifodalanish vositalarini aniqlash hamda ularning pragmatik funksiyalarini qiyosiy tahlil qilishni qamrab oladi. **Tadqiqot obyekti -** ingliz va o‘zbek tillarida menasiv mazmunni ifodalovchi nutqiy birliklar tadqiqot obyekti sifatida belgilandi. **Tadqiqot predmeti -** menasiv nutqiy aktlarning grammatik-sintaktik shakllari va ularning pragmatik funksiyalari tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi;

a) menasiv nutqiy aktlarning grammatik ifodalanish xususiyatlarini aniqlash;
b) ingliz va o‘zbek tillaridagi asosiy sintaktik konstruksiyalarni tasniflash;
c) darak, buyruq va so‘roq gaplarning menasiv funksiyasini aniqlash;
d) shart konstruksiyalarining tahdid mazmunini shakllantirishdagi rolini ko‘rsatish;
e) fe’l zamon va mal shakllarining pragmatik imkoniyatlarini tahlil qilish;
f) ingliz va o‘zbek tillaridagi umumiy va farqli grammatik xususiyatlarni aniqlash.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Menasiv nutqiy aktlarni o‘rganish bevosita nutqiy aktlar nazariyasi, pragmatika va kommunikativ tilshunoslik bilan bog‘liq. J. L. Ostin nutqiy faoliyatning lokutiv, illokutiv va perlokutiv jihatlarini ajratib ko‘rsatib, nutq birliklarining kommunikativ vazifasini ularning grammatik shaklidan tashqari, bajarilayotgan harakat bilan bog‘lash zarurligini asoslagan. J. R. Syorl esa illokutiv aktlarni kommunikativ maqsad, illokutiv kuch va adresatga yo‘naltirilganlik kabi mezonlar asosida tavsiflagan. Uning yondashuvida direktivlar adresatning kelgusidagi harakatiga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan nutqiy aktlar sifatida talqin qilinadi. Menasiv nutqiy aktlarda ham adresatning xatti-harakatiga ta’sir ko‘rsatish elementi mavjud bo‘lib, bu jihat ularni direktiv aktlar bilan semantik-pragmatik jihatdan yaqinlashtiradi. P. Brown va S. C. Levinsonning muloyimlik nazariyasida tahdid yuzaga keltiruvchi nutqiy harakatlar “face-threatening acts” tushunchasi doirasida ko‘rib chiqiladi. Mazkur yondashuv tahdid mazmunini faqat leksik yoki grammatik shakl emas, balki kommunikativ munosabat va ijtimoiy kontekst bilan bog‘liq hodisa sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Shuningdek, G. Leech, S. Levinson va boshqa pragmalingvistlar tomonidan ishlab chiqilgan pragmatik yondashuvlar nutqiy birliklarning kontekstual mazmunini aniqlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gapning formal grammatik turi va uning kommunikativ funksiyasi har doim ham bir-biriga to‘liq mos kelavermaydi. Rus tilshunos olimi Novoselova O. V.menasiv ifodalar asosan murakkab qo‘shma gaplar shaklida namoyon bo‘lib, ularda tahdid mazmuni bosh gapda, shart esa ergash gap tamonda qo‘llanilishini tahlil qilgan. *I'll hurl you out of the club if you dare tell the secret (D.L Flusfeder).* Bodnaruk E., Reznichenko L. esa menasiv nutqiy aktlarini buyruq gaplar bilan ifodalanishi keng qamrovli bo‘lmasa ham, vaziyatga va kontekstga bog‘liq holda badiiy va media diskursdagi jihatlarini tavsiflaydi. Martynova I. A.esa menasiv nutqiy aktlarni grammar-sintaktik jihatdan chuqur tahlil qiladi. Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, menasivlarni ifodalash uchun qo‘llaniladigan eng faol grammar shakllar - shart ergash gaplar, buyruq, so‘roq va murakkab gaplardir. Shundan kelib chiqib, menasiv nutqiy aktlarni grammatik-sintaktik jihatdan o‘rganishda ularning formal shakli va pragmatik funksiyasini birgalikda tahlil qilish zarur. O‘zbek olimlaridan Safarov Sh nutqiy aktlar nazariyasi, pragmalingvistika va nutqning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Hakimov M **esa** Nutqiy akt, pragmatik ma’no, kommunikativ-pragmatik birliklar va pragmalingvistik hodisalarni o‘rgangan bo‘lsalarda menasiv nutqiy aktlarning semantik-pragmatik tahlili o‘zbek tilshunosligida ochiq masalaga aylanmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy, tavsifiy, kontekstual-pragmatik va komponent tahlil usullaridan foydalanildi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi menasiv nutqiy aktlar grammatik-sintaktik tuzilishi, kommunikativ turi va pragmatik funksiyasiga ko‘ra qiyoslandi.

Tahlil jarayonida grammatik shaklning uch asosiy jihati hisobga olindi:

a) formal-struktur jihat — gapning grammatik va sintaktik qurilishi;

b) semantik jihat — konstruksiya orqali ifodalanayotgan mazmun;

d) pragmatik jihat — so‘zlovchining kommunikativ maqsadi va adresatga ko‘rsatilayotgan ta’sir.

Shu asosda menasiv nutqiy akt quyidagi model orqali tavsiflanadi:

grammatik shakl → semantik mazmun → kommunikativ niyat → menasiv pragmatik funksiya.

Darak gaplar orqali ifodalanishi

Darak gaplar ingliz va o‘zbek tillarida menasiv mazmunni ifodalashning muhim sintaktik vositalaridan biridir. Darak gapning asosiy funksiyasi ma’lum axborotni yetkazishdan iborat bo‘lsa-da, muayyan kontekstda u kelajakdagi salbiy harakat haqida xabar berish orqali tahdid funksiyasini bajarishi mumkin.

Ingliz tilida: *I will find you.*

O‘zbek tilida unga funksional jihatdan: *Men seni topaman.* konstruksiyasiga mos keladi.

Mazkur gap formal jihatdan darak gap bo‘lib, *will find* shakli kelajakdagi harakatni bildiradi. Biroq tegishli kontekstda ushbu konstruksiya oddiy xabar emas, balki adresatga nisbatan salbiy harakat amalga oshirilishini anglatishi mumkin. Bu misollarda birinchi shaxs shakli salbiy harakat subyektini, ikkinchi shaxs shakli esa adresatni belgilaydi. Demak, shaxs-son kategoriyasi ham menasiv mazmunni grammatik jihatdan konkretlashtirishga xizmat qiladi.

Buyruq gaplar orqali ifodalanishi

Buyruq gaplar menasiv nutqiy aktlarning grammatik ifodalanishida muhim vositalardan biri hisoblanadi. Imperativ konstruksiyaning asosiy vazifasi adresatni ma’lum harakatni bajarishga yoki bajarmaslikka undashdir. Menasiv nutqiy aktlarini buyruq gaplar bilan ifodalanishi keng qamrovli bo‘lmasa ham, vaziyatga va kontekstga bog‘liq holda baddiy va media diskursda uchrab turadi.

Ingliz tilida:

- O‘zbek tilida: *Menga qara! – dedi chol to‘ng‘illab. - Olsang, ol, bo‘lmasa toshingni ter!* (O.Hoshimov,yarim asr daftari,116 b)

- He didn’t ask us to clean our rooms or to make our beds – he commanded, “Police your area!” (Will Smith, Will,2021, p.18)

Har ikki konstruksiya formal jihatdan buyruq gapdir. Biroq agar kontekstda buyruq bajarilmagan taqdirda salbiy oqibat yuzaga kelishi anglashilsa, ushbu konstruksiyalar menasiv pragmatik xususiyat kasb etadi. Imperativ shaklni avtomatik ravishda tahdid sifatida baholash mumkin emas. Uning menasiv funksiyasi kontekst va kommunikativ vaziyat orqali aniqlanadi.

So‘roq gaplar orqali ifodalanishi

So‘roq gaplar ham bilvosita menasiv mazmunni shakllantirish imkoniyatiga ega. Bunda gapning grammatik shakli savolni ifodalasa-da, uning kommunikativ funksiyasi adresatdan axborot olish emas, balki uni ogohlantirish yoki bosim ostida qoldirishdan iborat bo‘lishi mumkin;

Ingliz tilida: How would you like it if I told everyone your secrets? – agar sirlarini hammaga aytsam, qanday bo‘larkin?) (Brandy & Mr. Whiskers, animated TV discourse

O‘zbek tilida: *Yana bir marta men haqimda boshqalarga yomonlab gapirganingizni eshitadigan bo‘lsam, o‘zingizdan ko‘ring, afsus qildiraman ”,- dedi. (Ahmad Lutfiy Qozonchi, Qaynona,336 bet)*

Mazkur konstruksiyalar formal jihatdan so‘roq gap bo‘lsada, kontekstual jihatdan salbiy oqibatni eslatish orqali adresatga ta’sir ko‘rsatadi. Demak, so‘roq shakli bilvosita menasivlikni yuzaga keltiruvchi grammatik vosita sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Shart konstruksiyalari

Shart konstruksiyalari menasiv nutqiy aktlarda tahdidning sharti va oqibatini o‘zaro bog‘lashga imkon yaratadi;

Ingliz tilida: *How would you like it if I told everyone your secrets*? – agar sirlarini hammaga aytsam, qanday bo‘larkin?) (Brandy & Mr. Whiskers, animated TV discourse)

O‘zbek tilida: *Yana bir marta men haqimda boshqalarga yomonlab gapirganingizni eshitadigan bo‘lsam, o‘zingizdan ko‘ring, afsus qildiraman ”,- dedi. (Ahmad Lutfiy Qozonchi, Qaynona,336 bet)*Ingliz tilidagi *if-clause* va o‘zbek tilidagi *agar...-sa* konstruksiyasi adresatning muayyan harakatini shart sifatida belgilaydi. Ikkinchi qism esa ushbu harakat natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatni bildiradi. Shart → adresat harakati → salbiy oqibat. Bu model menasiv mazmunning mantiqiy-pragmatik asosini tashkil etadi.

Fe’l zamon shakllari orqali ifodalanishi

Menasiv nutqiy aktlarda kelasi zamon shakllari alohida pragmatik ahamiyatga ega. Chunki tahdid ko‘pincha kelajakda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan harakat yoki oqibat bilan bog‘liq.

Ingliz tilida *will* yordamchi fe’li, o‘zbek tilida esa kelasi zamon shakllari kelajakdagi harakatni grammatik jihatdan ifodalash imkonini beradi. **Kelasi oddiy zamoni (will + V)** menasiv nutqiy aktlarning eng tipik va yuqori darajada ekspressiv grammatik vositalaridan biri sifatida qaraladi.

- *Hozir kirib, bir jarohatingni o‘ngga yetkazaman!* (Primqul Qodirov, Yulduzli tunlar,142 bet).
- “*Those who would harm you will die screaming – senga azob berganlar baqirib jon beradilar)”* (Game of Thrones, Season 1, Episode 10, “Fire and Blood”). Mazkur konstruksiyalar kontekstga qarab oddiy kelajakdagi harakatni yoki adresat uchun nomaqbul oqibatni yuzaga keltirish haqidagi tahdidni anglatishi mumkin.

QIYOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy tahlili menasiv nutqiy aktlarning grammatik-sintaktik ifodalanishida bir qator umumiyliklar mavjudligini ko‘rsatadi. Har ikki tilda ham darak, buyruq va so‘roq gaplar, shart konstruksiyalari, kelasi zamon shakllari va inkor vositalari menasiv mazmunni ifodalash imkoniyatiga ega. Biroq mazkur vositalarning grammatik shakllanish mexanizmlarida tilga xos farqlar mavjud. Ingliz tilida analitik grammatik vositalar, yordamchi fe’llar va qat’iy sintaktik tartib muhim o‘rin tutsa, o‘zbek tilida agglutinativ morfologiya, fe’l qo‘shimchalari, mayl va shaxs-son ko‘rsatkichlari faolroq namoyon bo‘ladi.

Grammatik vosita	**Ingliz tili**	**O‘zbek tili**	**Pragmatik funksiya**
Darak gap	*I will...*	*Men ...aman*	Kelajakdagi salbiy harakat
Buyruq gap	*Leave!*	*Ket!*	Talab/taqiq
So‘roq gap	*Do you know...?*	*Bilasizmi...?*	Bilvosita ogohlantirish
Shart konstruksiyasi	*If..., will...*	*Agar..., -sa...*	Shartli tahdid
Inkor	*Don't...*	*-ma*	Taqiq
Kelasi zamon	*will + V*	*-adi/-aman*	Kelajakdagi oqibat
Imperativ	*V!*	*V + shaxs shakli*	Adresatga yo‘naltirilgan talab

qiyosiy tahlil natijalari menasiv nutqiy aktlarning universal pragmatik asoslari mavjudligini, biroq ularning grammatik realizatsiyasida har bir tilning struktur-tipologik xususiyatlari namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Menasiv nutqiy aktlarning grammatik-sintaktik ifodalanishini tahlil qilish natijasida tahdid mazmunini faqat leksik birliklar bilan bog‘lash yetarli emasligi ko‘rinadi. Grammatik shakl ko‘pincha tahdidning ochiq yoki bilvosita ifodalanish darajasini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Ochiq menasiv konstruksiyalarda salbiy harakat yoki uning oqibati nisbatan aniq ifodalanadi. Bilvosita konstruksiyalarda esa tahdid mazmuni gapning formal shakli, kontekst, presuppozitsiya va kommunikativ vaziyatning o‘zaro ta’siri orqali hosil bo‘ladi. Ayniqsa, so‘roq va darak gaplarning menasiv funksiyada qo‘llanishi grammatik shakl va nutqiy funksiyaning doimo bir-biriga teng emasligini ko‘rsatadi. Shu sababli menasiv nutqiy aktlarni tadqiq etishda “gapning grammatik turi” va “uning pragmatik funksiyasi”ni alohida kategoriyalar sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Ingliz va o‘zbek tillarida menasiv nutqiy aktlarning grammatik-sintaktik ifodalanishini qiyosiy o‘rganish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi. Menasiv nutqiy aktlar yagona grammatik shakl bilan chegaralanmaydi. Ular darak, buyruq va so‘roq gaplar, shart konstruksiyalari, fe’l zamon va mayl shakllari hamda inkor vositalari orqali ifodalanishi mumkin. Grammatik shaklning o‘zi menasiv mazmunni avtomatik ravishda yuzaga keltirmaydi. Menasivlik grammatik

shaklning semantik mazmun, kommunikativ vaziyat va so‘zlovchining kommunikativ maqsadi bilan o‘zaro munosabati natijasida shakllanadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida menasiv nutqiy aktlarning pragmatik tabiati umumiy xususiyatlarga ega bo‘lsada, ularning grammatik realizatsiyasida mazkur tillarning struktur-tipologik xususiyatlari aks etadi. Menasiv nutqiy aktlarning grammatik-sintaktik ifodalanishini **“grammatik shakl – semantik mazmun – kommunikativ niyat – pragmatik funksiya”** modeli asosida o‘rganish ularning lingvopragmatik mohiyatini yanada aniqroq ochib berish imkonini beradi. Ingliz va o‘zbek tillarida menasiv nutqiy aktlarni qiyosiy tadqiq etishda grammatik-sintaktik vositalarni pragmatik kontekst bilan uzviy aloqada tahlil qilish muhim ilmiy-metodologik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962.

[2] Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.

[3] Searle J. R. Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979.

[4] Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.

[5] Leech G. N. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983.

[6] Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.

[7] Bach K., Harnish R. M. Linguistic Communication and Speech Acts. – Cambridge, MA: MIT Press, 1979.

[8] Thomas J. Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics. – London: Longman, 1995.

[9] Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996.

[10] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008.

[11] Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

[12] Мартынова И. А. Функционально-прагматическое поле менасивных речевых актов (на материале современной англоязычной художественной литературы): дис. – Самара: Самарский государственный педагогический университет, 2006.

[13] Bodnaruk E., Reznichenko L. Paradigmatics, semantics and pragmatics of the imperative in German // SHS Web of Conferences. – EDP Sciences, 2019. – T. 69. – C. 00023.

[14] Новоселова О. В. Функционально-семантическая характеристика дискурсивных практик со значением угрозы в английском языке: дис. – Тверь: Тверской государственный университет, 2013.